



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O. Karimov,

U. Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abduljon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Ablazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

UO'K: 378.091.3:547

XALQ TABOBATI USULLARIDAN FOYDALANILGAN HOLDA TALABALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKILLANTIRISH MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A.

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda xalq tabobatidan foydalanish, uning tarbiyaviy va sog'lomlashtiruvchi imkoniyatlari hamda ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va yoshlar salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar:

sog'lom turmush tarzi, xalq tabobati, talabalar salomatligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol ta'lim usullari, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, sog'liqni saqlash kompetensiyalari.

Аннотация.

В данной статье анализируется использование народной медицины в формировании здорового образа жизни среди студентов, его воспитательные и оздоровительные возможности, а также роль современных педагогических технологий в его интеграции в образовательный процесс. Результаты исследования важны для популяризации здорового образа жизни в системе высшего образования и укрепления здоровья молодежи.

Ключевые слова:

здоровый образ жизни, народная медицина, здоровье студентов, современные педагогические технологии, интерактивные методы обучения, личностно-ориентированный подход, компетенции в области сохранения здоровья.

Abstract.

This article discusses the use of traditional medicine in promoting a healthy lifestyle among students, its educational and health-promoting potential, and the role of modern educational technologies in integrating it into the educational process. The study's findings are important for promoting a healthy lifestyle in higher education and improving the health of young people.

Keywords:

healthy lifestyle, traditional medicine, student health, modern educational technologies, interactive teaching methods, student-centered approach, health competencies.

Farzandlarimizni sog'lom turmush tarzini shakllantirishda xalq tabobati an'analari va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning uyg'unligini ta'minlash muhim vazifa bo'lib qolmoqda. Xalq tabobati inson organizmini tabiat qonunlariga muvofiqlik yo'lida mustahkamlashga qaratilgan amaliy bilimlar yig'indisi bo'lib, ularni zamonaviy pedagogika vositalari bilan integratsiya qilish orqali talabalarning sog'liqni saqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini yanada ishlab chiqish mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa talabalarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, muammoviy yondashuvlar orqali ilmiy izlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimida

mazmunan yangi davlat, yangi jamiyat tarkib topayotgan ekan, unga mos yangi qadriyat va munosabatlar tizimi shakllanishi tabiiydir. Hozirgi vaqtda qabul qilinayotgan qonunlar, farmon va qarorlar ana shu ulkan o'zgarishlarga yangi turtki va yo'nalish bermoqda [1].

Sog'lom turmush tarzi tushunchasi zamonaviy ilm-fanda ko'p qirrali va kompleks kategoriya sifatida qaraladi. Tibbiy nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzi organizmning funksional holatini saqlash va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan omillar majmuasini anglatrsa, pedagogik nuqtai nazardan u shaxsning sog'liqqa ongli munosabatini shakllantirish jarayoni sifatida talqin etiladi [2, 3].

Pedagogik jihatdan sog'lom turmush tarzi:

- sog'liqqa oid bilimlar tizimi;
- sog'lom xulq-atvor va odatlar;
- salomatlikni saqlashga qaratilgan ijtimoiy faollik;
- shaxsiy mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksiz va maqsadli tashkil etilishini talab qiladi. Bu jarayonda nazariy bilimlar amaliyot bilan uyg'unlashgan holda berilishi muhim ahamiyatga ega [4].

Pedagogik nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzi shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta'minlashga qaratilgan kompleks tizim sifatida qaraladi. U, avvalo, salomatlikka oid ilmiy asoslangan bilimlar majmuasini, sog'lom xulq-atvor me'yorlari va barqaror odatlarni, salomatlikni muhofaza qilish va mustahkamlashga qaratilgan ijtimoiy faollikni, shuningdek, shaxsiy mas'uliyat va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini qamrab oladi [5].

Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonining uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishini talab qiladi. Bu jarayon pedagogik ta'sirning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, yosh va individual xususiyatlarni inobatga olish, shuningdek, ta'lim mazmunida salomatlikni saqlashga yo'naltirilgan g'oya va qadriyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Shu tariqa, ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini tarbiyalash nafaqat sog'liqni saqlashga qaratilgan pedagogik vazifa, balki jamiyatning intellektual va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi [6].

Pedagogik nuqtai nazardan sog'lom turmush tarzi shaxsning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy kamolotiga xizmat qiluvchi ko'p qirrali tizim sifatida talqin etiladi. U ta'lim-tarbiya jarayonida maqsadli ravishda shakllantiriladigan o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar majmuasini o'z ichiga oladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida sog'lom turmush tarzini shakllantirish pedagogik ta'sirning maqsadli, tizimli va uzluksiz tashkil etilishini talab etadi. Bunda ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari va tarbiyaviy usullar sog'liqni saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Shuningdek, nazariy bilimlarning amaliyot bilan integratsiyasi, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuvlarni qo'llash mazkur jarayon samaradorligini ta'minlovchi muhim pedagogik shartlar hisoblanadi [7].

Shu ma'noda, talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat individual salomatlikni ta'minlashga qaratilgan tarbiyaviy vazifa, balki ijtimoiy barqarorlik, inson kapitali sifati va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik ahamiyatga ega pedagogik vazifa sifatida qaraladi.

Pedagogik nuqtai nazardan, sog'lom turmush tarzini shakllantirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga tayanadi va talabaning individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu jarayonda talabaning motivatsion sohasi, qadriyatlar tizimi, o'z-o'zini anglash darajasi va ijtimoiy tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan, sog'lom turmush tarziga bo'lgan ijobiy munosabat ichki ehtiyoj, barqaror motivatsiya va ongli tanlov asosida shakllanadi.

Psixologik-pedagogik tahlil shuni ko'rsatadiki, talabalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirishda motivatsiya va onglilik yetakchi omillar hisoblanadi. Agar sog'lom hayot tarzi tashqi nazorat yoki majburiy talab sifatida emas, balki shaxsiy qadriyat sifatida qabul qilinsa, u barqaror xulq-atvorga aylanadi. Shu bois ta'lim jarayonida reflektiv faoliyatni rivojlantirish, o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirish pedagogik jihatdan muhim shart hisoblanadi [8].

Talabalik davri - bu shaxsning jismoniy, ruhiy, ijtimoiy va intellektual jihatdan shakllanishining eng faol bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda sog'lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat salomatlikni saqlash, balki kelajakda professional va shaxsiy rivojlanishning muhim omilidir. Psixologik-pedagogik jihatlar talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi — xalq tabobati elementlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish orqali talabalarda sog'lom turmush tarziga oid bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish darajasini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tajriba-sinov ishlarining dasturini ishlab chiqish;
- nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish;
- talabalarning dastlabki bilim va munosabatlarini aniqlash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida mashg'ulotlarni tashkil etish;
- tajriba yakunida olingan natijalarni tahlil qilish va solishtirish.

Tajriba-sinov ishlari oliy ta'lim muassasasining (Kimyo va biologiya fakul'teti) Kimyo ta'lim yo'nalishi 2-3-kurs talabalarida ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda jami 64 nafar talaba qatnashib, ular "tajriba guruhi" va "nazorat guruhi" ga ajratildi.

Mazkur tajriba-sinov ishlarida xalq tabobati nafaqat sog'lomlashtiruvchi vosita sifatida, balki pedagogik tarbiya manbai, ya'ni o'quvchilarda tabiatga ehtiyotkor munosabat, ekologik madaniyat, sabr-toqat, mehnatsevarlik va mas'uliyat kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlarni rivojlantiruvchi omil sifatida qaraladi.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlarining maqsadi quyidagilarni ham o'z ichiga oladi:

xalq tabobatiga oid bilimlarni ta'lim mazmuniga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlash;

xalq tabobati asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning tarbiyaviy samaradorligini aniqlash;

o'quvchilarning sog'liqni saqlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish darajasini baholash;

ishlab chiqilgan pedagogik modelning amaliy natijadorligini tajriba yo'li bilan tekshirish.

Belgilangan maqsadga erishish uchun tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

Xalq tabobatining pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy manbalarni o'rganish va tahlil qilish.

Xalq tabobati asosida talabalarda shakllantirilishi zarur bo'lgan tarbiyaviy kompetensiyalar (sog'lom turmush tarzi, milliy qadriyatlarga sodiqlik, ekologik ong) ni aniqlash.

Tajriba-sinov ishlari uchun mos pedagogik shart-sharoitlarni belgilash.

Tajriba va nazorat guruhlarini shakllantirish hamda ularning boshlang'ich bilim va tarbiyaviy darajasini diagnostika qilish.

Xalq tabobatining pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov ishlari tizimli va izchil ravishda quyidagi bosqichlarda tashkil etildi:

a) Tayyorlov bosqichi.

Mazkur bosqichda tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, pedagogik, psixologik va tibbiy adabiyotlar tahlil qilindi. Xalq tabobatining tarbiyaviy jihatlari aniqlanib, tajriba-sinov ishlarining dasturi, rejasi va metodologik asoslari ishlab chiqildi. Shuningdek, o'quvchilarning sog'lom turmush tarziga oid boshlang'ich bilim va qarashlari diagnostika usullari orqali o'rganildi.

b) Asosiy (tajriba) bosqichi.

Asosiy bosqichda xalq tabobatiga oid bilimlar ta'lim jarayoniga integratsiyalashgan holda amalga oshirildi. Mashg'ulotlarda dorivor o'simliklar, xalqona davolash usullari, sog'lom ovqatlanish va gigiyena madaniyatiga oid mavzular yoritildi. Tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchilarda milliy merosga hurmat, tabiatga ehtiyotkorlik va sog'lom hayotga intilish kabi fazilatlar shakllantirildi.

Nazorat guruhlarida esa ta'lim-tarbiya jarayoni an'anaviy usullarda olib borildi.

c) Yakuniy (nazorat-tahlil) bosqichi.

Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida solishtirma tahlil o'tkazildi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va tarbiyaviy sifatlaridagi o'zgarishlar aniqlanib, statistik tahlil asosida tajriba-sinov ishlarining samaradorligi baholandi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tajriba-sinov ishlarining ilmiy asosda tashkil etilishi xalq tabobatining pedagogik va tarbiyaviy imkoniyatlarini samarali ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv

o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish bilan birga, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkonini beradi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida xalq tabobati elementlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish talabalarning bilish faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda sog'liqni saqlashga oid mas'uliyatli munosabatini shakllantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. Jumladan, interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, kichik guruhlarda ishlash, loyihaviy faoliyat hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.

Tajriba jarayonida talabalarning sog'lom ovqatlanish, dorivor o'simliklardan oqilona foydalanish, shaxsiy gigiyena va kasalliklarning oldini olishga oid bilimlari tizimlashtirildi. Shu bilan birga, xalq tabobatiga xos bo'lgan tabiat bilan uyg'unlik, sabr-toqat va tejamkorlik kabi axloqiy qadriyatlar tarbiyaviy jarayon mazmuniga singdirildi. Bu esa talabalarda sog'lom turmush tarzini faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki kundalik hayotiy ehtiyoj sifatida anglashga yordam berdi.

Nazorat va tajriba guruhlarini natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning bilim darajasi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda an'anaviy usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, talabalarning mustaqil izlanish olib borish, o'z fikrini asoslab berish va amaliy xulosalar chiqarish ko'nikmalarida sezilarli o'sish kuzatildi.

1-jadval

Xalq tabobati fanini o'qitishda talabalarning o'quv bilish faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning tajriba va nazorat guruhlariga taqsimlanishi

Tajriba-sinov obyektlari	Umumiy respondentlar soni	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Andijon davlat universiteti	64	32	32

Mazkur jadvalda xalq tabobati fanini o'qitishda talabalarning o'quv-bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarida ishtirok etgan respondentlarning taqsimlanishi aks ettirilgan. Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat universiteti bazasida tashkil etilib, unda respondent sifatida "Kimyo" ta'lim yo'nalishi 2-3 bosqichining jami 64 nafar talabalari ishtirok etdilar. Respondentlar tenglik tamoyiliga asoslangan holda tajriba guruhi va nazorat guruhlariga ajratildi, ya'ni har bir guruh 32 nafardan talabadan tashkil topdi.

Bunday taqsimot tajriba-sinov natijalarining obyektivligini ta'minlash, guruhlar o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazish hamda qo'llanilgan pedagogik metodlarning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tajriba natijalari Pirsonning χ -kvadrat kriteriysi bo'yicha matematik qayta ishlandi. Ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba guruhida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajada o'zlashtirgan talabalar ulushi deyarli 70 %ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich salkam 41 %ni tashkil etdi. Past darajadagi o'zlashtirish tajriba guruhida 6,25 % bo'lib, nazorat guruhida esa 28 %ga teng bo'ldi. Mazkur natijalar tajriba guruhida qo'llanilgan interfaol "Aqliy hujum", "Klaster", "B-B-B", "Venn diagrammasi", "Insert" metodlar talabalarning bilish faolligini oshiradi, muloqot madaniyatini rivojlantiradi va o'rganilayotgan mavzuga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi. Bu metodlar orqali talabalarda xalq tabobatiga oid bilimlar tizimli va ongli ravishda shakllanadi.

Mazkur tadqiqot ishi talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda xalq tabobatidan foydalanishni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati va samaradorligini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashga bag'ishlandi. Tadqiqot davomida olingan nazariy va amaliy natijalar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

Birinchidan, sog'lom turmush tarzi talaba shaxsining jismoniy, ruhiy va ijtimoiy barkamolligini ta'minlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi. Talabalik davri sog'lom hayotga oid bilim, ko'nikma va munosabatlar shakllanadigan muhim bosqich bo'lib, bu jarayonda ta'lim muassasalarining roli beqiyosdir.

Ikkinchidan, xalq tabobati sog'lom turmush tarzini shakllantirishda samarali pedagogik vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xalq tabobatining dorivor o'simliklar, tabiiy muolajalar va sog'lom ovqatlanish madaniyatiga oid jihatlari talabalarda sog'liqni asrashga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xalq tabobatini o'qitishda ilmiylik va xavfsizlik tamoyillariga rioya etish zarurligi asoslab berildi.

Uchinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar — interfaol metodlar, loyihaviy va muammoli ta'lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari — xalq tabobatini o'qitish jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Ushbu texnologiyalar talabalarni faol o'quv jarayoniga jalb etib, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yo'naltirilgan fanlar va mashg'ulotlar mazmuniga xalq tabobati elementlarini ilmiy asosda kiritish maqsadga muvofiq.
2. Xalq tabobatini o'qitishda interfaol metodlar, loyihaviy ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan tizimli foydalanish tavsiya etiladi.
3. Talabalar uchun dorivor o'simliklar, sog'lom ovqatlanish va tabiiy sog'lomlashtirish usullariga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotlar va treninglar tashkil etish zarur.

4. Xalq tabobatini o'qitishda an'anaviy tibbiyot bilan uyg'unlikni ta'minlash, ilmiy asoslanmagan va xavfli usullardan saqlanish bo'yicha talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish lozim.

5. Tadqiqot natijalaridan pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib etishga qaratilgan o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. 1-oktyabr - Ustoz va murabbiylar kuni munosabati bilan ustozlarga bayram tabrigi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2024. 3-son.

2. I.R.Asqarov Tabobat qomusi. Mumtoz so'z. Toshkent. 2019. 1032 b.

3. Marta Estrela, Catarina Leita, Vanessa Neto, Beatriz Martins, Joao Santos, Ana Branquinho, Adolfo Figueiras, Fatima Roque, Maria Teresa Herdeiro. Educational interventions for the adoption of healthy lifestyles and improvement of health literacy: a systematic review. Public Health. Volume 245, August 2025, <https://doi.org/10.1016/j.puhe.2025.105788>

4. Abdullajonova Yu.A., Xoshimjonova O.A., Mamajonova O'Z., Mirzayeva Z.O., Qirg'izov F.B., Muydinov N.T. Ta'lim jarayoni subyektlarning ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. ADPI Ilmiy xabarnomasi. №1/2025 22-b.

5. Do'monov B.M., Rustamov S.A., Mutalibova N.G'. Umumta'lim maktablarida kimyo fanidan virtual laboratoriya tajribalari to'plamini yaratish va amaliyotga qo'llash: refleksiya metodi yondashuvi. ADPI Ilmiy xabarnomasi. №2/2025. 242 b.

6. S.A. Rustamov, N.G. Mutalibova. Virtual laboratoriyalardan foydalanish istiqbollari. 21.11.2024. <https://zenodo.org/communities/10111213>

7. Yusupjonova J., Mo'minova M., Xaydarov S. O'quvchi yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish -ijtimoiy pedagogik muammo sifatida "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz. April 2024. Volume 5, Issue 4. ISSN 2181-0842.

8. Abdurasulova G. D. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish. Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali. 2025. 75-son 3-qism.

